

O‘ZBEK QIZIQCHILARI NUTQINING LEKSIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

X. Dusmatov

filologiya fanlari doktori (DSc), FDU dotsenti,

Sh. Komilova

FDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek qiziqchilik san’ati, uning taraqqiyoti haqida mulohazalar yuritiladi. Qiziqchilar nutqida qo‘llanadigan leksik-stilistik usul va vositalar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: leksik-stilistika, xalq og‘zaki ijodi, omonim, frazeologizm, agnonim, ko‘p ma’nolilik.

Аннотация: В данной статье рассматривается узбекское художественное искусство и его развитие. Анализируются лексико-стилистические приемы и средства, используемые в речи дилетантов.

Ключевые слова: лексико-стилистика, фольклор, омоним, фразеологизм, агноним, полисемия.

Abstract: This article discusses Uzbek art of curiosity and its development. The lexical-stylistic methods and tools used in the speech of amateurs are analyzed.

Key words: lexical-stylistics, folklore, homonym, phraseologism, agnonym, polysemy.

Qiziqchilik san’ati xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri sifatida leksik jihatdan xilma-xil til birliklaridan tashkil topgan. Ular nutqini tadqiq etar ekanmiz tarkibida umumxalq ishlatadigan so‘zlar, uslubiy xoslangan so‘zlar, kasb-hunarga xos so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, arxaizm va istorizmlar, neologizmlar, jargon va argolar, varvarizmlar, vulgarizmlar, tabu va evfemizmlar kabi turli ma’noviy guruhlariga mansub leksik birliklardan unumli foydalanilgan holatlarga duch kelindi. Qiziqchilar nutqining leksik-semantik jihatdan bunday xilma-xilligini ularning mavzu jihatdan chegaralanmaganligi bilan izohlash mumkin.

Qiziqchilar nutqini lingvostilistik jihatdan tadqiq etish unda ishlatilgan barcha til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini hajviy-yumoristik nuqtai nazardan

o'rganish imkonini beradi. Qiziqchilar nutqini o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, ularda ba'zan so'zlarning polisemantik xususiyatiga tayangan holda, ba'zan ularning ma'nosiga yangicha yondashish, ba'zan ko'chma ma'noda ishlatilgan lug'aviy birlikni o'z asl ma'nosida tushunish orqali kulgili vaziyat yaratiladi.

- *Mana bu **katagimgizni** oching, man nima qilishni ko'rsataman.*

- *Iyy, siz katakda o'tiribsizmi? Man sizni **katak** ko'ylak kiyib olgansiz deb o'ylabman. ("Million" jamoasi)*

Qiziqchilar nutqining ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashdagi qulay vositalaridan biri bu shakldosh (omonim) so'zlar hisoblanadi. Omonimlar (yun. homos — bir xil+onyma — nom). Talaffuzi va yozilishi bir xil birdan ortiq so'zlar⁴.

- *O'tgan hafta bir iqtidorli qizlarni yig'ib "Quvnoq startlar" spartagiadasiga olib chiqdik. Spartagiada **tumanda** o'tkazildi. Nechanchi o'rinni olganimizni ko'rolmay qoldim.*

- *Nimaga?*

- ***Tumanda** o'tkazildi deyapman, hamma yoq tuman, hech narsa ko'rinmadi.*

Ushbu matn tarkibida qo'llanilgan "tuman" leksemasi omonimlarga mansub bo'lib, uning birinchi ma'nosi "atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki muz zarralari"⁵, ikkinchi ma'nosi esa ma'muriy hudud ma'nosini anglatadi.

Xalq og'zaki ijodida so'z o'yinlari omonim birliklar vositasida ko'p hosil qilinadi.⁶ Qiziqchilar nutqida ham omonimlar orqali so'z o'yinlari hosil qilish hodisasini uchratish mumkin. Xususan, qiziqchi Avaz Oxun tomonidan aytiladigan latifalarda bu hodisa yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ikkita odam bir ish masalasida talashib qolishibdi. Qoziga borishdan oldin bittasi boribdi-da, qozining qo'liga qirq ming so'mni berib:

- *Qozibuva, mana shu ishni biz tomonga hal qilib berasiz, - debdi.*

Haligi odam ketgandan keyin ikkinchi da'vogar kelibdi-da, shart yuz mingni berib:

- *Mana shu ishni biz tomonga hal qilib berasiz, - debdi.*

Ertasi kuni qozi majlis qilyotgan emish, tinmay gapni aylantiryotgan emish:

- *Kelishinglar endi, hammasi yaxshi bo'ladi. Kelishinglar. Aniq gap gapirmasmish. Qirq mingni bergan odam kesatib:*

- *Hoy qozi domla, bir qirqib-qirqib gapirsangiz bo'lmaydimi? - desa, qozi:*

4 Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 75 б.

5 О'zbek tilining izohli lug'ati. II tomli Moskva 1981-y. 222-b.

6 Dusmatov X. Askiya matning lingvostilistikasi. Filol.fan.fal. dok...diss. avtoref. – Farg'ona, 2018. 112-bet.

- *Endi, uka, qirqib gapiraman desam, manavining yuzidan o'tolmayapman-da, debdi.*

Yuqorida keltirilgan dialogda foydalanilgan yuz so'zining son va insonning yuzi ma'nosida, qirq so'zining qirqmoq fe'li hamda son ma'nosini ifodalashi orqali omonimiya hodisasi kuzatilgan va shu orqali tomoshabinda kulgi qo'zg'atiladi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni tinglovchi ko'zi o'ngida aniq va to'la gavalantirishda frazeologik birliklarning o'рни, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-hoлатlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari.

So'z o'yinlarining keng tarqalgan usullaridan biri – bu nutqiy vaziyatda so'zlarni o'z va ko'chma ma'noda baravar qo'llash hisoblanadi. Buning uchun qiziqchilar ko'pma'noli so'zlarga, ko'chma ma'noli so'zlarga hamda iboralarga e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Masalan:

– *Hojiboy aka, mana shu kitobimga qo'l qo'yib bersangiz.*

– *Tap etib qo'limni kitobining ustiga qo'ydim. (Hojiboy Tojiboyev)*

Yuqoridagi misolda qo'l qo'yimoq ifodasi leksik omonimiyaga misol bo'ladi. Ya'ni:

1) qo'l qo'yimoq – biror narsa ustiga qo'lini qo'yimoq;

2) qo'l qo'yimoq – imzo chekmoq kabi ma'nolarni ifodalab kelgan.

Frazeologik birikmalar kulgi hosil qiluvchi lisoniy vosita sifatida, asosan, dialogik nutqda so'zlashuvchilarning o'zaro munosabati asosida ularning to'g'ri va ko'chma ma'nolari yordamida hosil qilinadi.⁷ Qiziqchilar nutqida qo'llangan frazeologik birlik suhbat jarayonida ko'chma ma'noda qo'llanilib, keyin qiziqchi tomonidan to'g'ri ma'nosining izohlanishi orqali tinglovchida kulgi qo'zg'atiladi. Masalan, *Abdurayimning qizini kelin qilmoqchi bo'lyapman-u o'g'limga, lekin qo'lim kaltalik qilyapti-da* gapi dastlab dialog sifatida bayon etiladi. So'ngra to'g'ri ma'nosi noverbal vositalar va so'zlar orqali izohlanadi. Shu yo'l bilan frazeologik birliklardan foydalanish orqali tinglovchida kulgi qo'zg'atiladi.

Agnonim atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum" degan ma'nolarni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi noma'lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya'ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog'liq hodisa deb qabul qilish mumkin. Agnomaziya badiiy nutqda

⁷ Абдурахмонов Ш. Ўзбек адабий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. –Тошкент, 1997. – 17 б.

agnonimlarning uslubiy maqsadda qo'llanilish hodisasi.⁸ Agnomaziya, asosan, dialogik nutqqa xos bo'lib, suhbatdoshiga noma'lum bo'lgan so'zlardan foydalanish orqali tinglovchida kulgi qo'zg'atishga xizmat qiladi.

- *Bordingizmi doktorga?*

- *Ha, bordim. Juda qimmat dori yozib berdi. Qidirib-qidirib topib keldim.*

- *Ha, topdingizmi, ishqilib?*

- *Bu tonusingiz juda pasayib ketibdi, -deydi.*

- *Nima ekan u tonus?*

- *Tonus bu - odamning kayfiyati tushib ketgan bo'larkan-da, shuni ko'tarish uchun kerak ekan (kiyimiga yashirilgan bir shisha aroqni chiqaradi).*

- *Ha, shunaqami? Ko'p-ko'p iching unda.*

Yuqorida keltirilgan er-xotin suhbatida tonus so'zi vositasida agnomaziya hodisasi yuzaga chiqariladi. Bunda tonus ayol uchun agnonim so'z sifatida ifodalanadi.

Omonimlar qatorida polisemantik so'zlar, paronimlar ham so'z o'yinlari hosil qilishning samarali vositalari bo'lib, ular qiziqchilar nutqida ko'pincha kulgi qo'zg'atishning effektiv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mas.:

Mijoz: *Hech kim yemagan ovqatlariz bormi?*

Ofitsiant: *Bor, bir haftalik ovqat bor, hech kim yemayapti.*

Mijoz: *Aroq bormi?*

Ofitsiant: *Yo'q, b-roq bor, xohlasangiz v-roq bor. Mayli sizga q-roq'idan topib beramiz.*

Mijoz: *Qatiq bering.*

Ofitsiant: *Yumshoq bersam-chi?*

Mijoz: *Xonim bormi?*

Ofitsiant: *Kechki payt kelishadi.*

Mijoz: *Tort bering!*

Ofitsiant: *Besh bersam-chi?*

Mijoz: *Yupqa bering!*

Ofitsiant: *Qalin bor.*

Mijoz: *Bo'pti, shotni ko'rsatib yuboring!*

Ofitsiant: *Shotti ko'rsataymi yo sal naryog'ni ko'rsataymi?*

Mijoz: *Yo'q, hisobni aytib yuboring!*

Ofitsiant: *Ha, 3:1 O'zbekiston yutdi. ("Bravo" jamoasi)*

Ko'rinadiki, o'zbek tilining shakldosh va ko'p ma'noli so'zlarga boyligi so'z o'yinlari hosil qilishda qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, lisoniy birliklarni o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nolarda qo'llash, ko'chma ma'noli so'zlarning turli-tuman ma'no nozikliklariga tayanib, ularni uslubiy vosita sifatida nutqda qo'llash kulgili vaziyat yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

⁸ Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. - Farg'ona, 2021. - 364-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Ш. Ўзбек адабий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. –Тошкент, 1997.
2. Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. - Farg‘ona, 2021.
3. Dusmatov X. Askiya matnining lingvostilistikasi. Filol.fan.fal. dok...diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. 112-bet.
4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
5. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tomli Moskva 1981-y.